UO‘K 94 (575.1)

IKKINCHI JAHON URUSHINING ILK (1941-1942) YILLARIDA ANDIJON OBLASTIDA QISHLOQ XO‘JALIGI

M.G‘. Abdullayev, R.N. Abdurasulov

Maqolada Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillarida Andijon viloyatida qishloq xo‘jaligining harbiy izga solinishi masalasi tahlil etilgan. Xususan, 1941–1942-yillarda Andijon viloyati rayonlarida paxta va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtirish bo‘yicha belgilangan davlat majburiyatlari miqdori, ularning bajarilishiga doir statistik ma’lumotlar umumlashtirilgan qishloq xo‘jaligida yangi ekin turlari yetishtirishni joriy etilishi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yuzaga kelgan qiyinchilik va muammolar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Ikkinchi jahon urushi, harbiy safarbarlik, Andijon oblasti, paxtachilik, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi, g‘alla ekinlari, davlat majburiyati, kolxoz, sovxoz, tomorqa xo‘jaligi, natural avans.*

В статье проанализированы вопросы приспособления сельского хозяйства Андижанской области к нуждам войны в первые годы Второй мировой войны. В частности, обобщены статистические данные о размерах государственных обязательств по выращиванию хлопка и других сельскохозяйственных культур в районах Андижанской области в 1941–1942 годах, описаны внедрение выращивания посевов новых видов культур в сельское хозяйство, проблемы и трудности, возникшие в сельскохозяйственном производстве при выполнении государственных обязательств.

Ключевые слова: *Вторая мировая война, военная мобилизация, Андижанская область, хлопководство, сельскохозяйственное производство, зерновые культуры, государственные обязательства, колхоз, совхоз, приусадебное хозяйство, натуральный аванс.*

Urush arafasida, 1940-yilda sovet mamlakatining jami aholisi 194,1 million kishi bo‘lib, ularning 131,0 millioni yoki 67,5 foizi qishloq aholisi edi. Qishloq xo‘jaligi tuzilmasida sotsialistik sektor ustuvor bo‘lib, mamlakatda 236,9 ming kolxoz va 4,2 ming sovxoz mavjud edi, kolxozlarda 18,7 million xo‘jalik uyushgan [1. B. 373]. Mamlakat iqtisodiyoti agrar sektorining samaradorligi juda past, kolxoz iqtisodiyoti inqiroz holatida bo‘lib, 1940-1941-yillarda shaharlardagi oziq-ovqat tanqisligi, qishloq joylardagi qiyinchiliklar buning yaqqol dalili edi. Bularning barchasi XX asrning 30-yillarida Stalin boshchiligidagi rahbariyat tomonidan amalga oshirilgan agrar siyosat natijasi edi [2. B. 74]. Boshlanib ketgan urush mamlakat dehqonchiligiga yanada og‘ir zarba berdi, nemis-fashistlar bosqini SSSRning agrar salohiyatini o‘ta zaiflashtirib qo‘ydi. Fashistlar tomonidan bosib olingan hududlarda urushdan oldin mamlakat aholisining 40 foizi yashardi [3. B. 166].

Urushning dastlabki oylaridayoq mamlakatning asosiy g‘alla, qand lavlagi, kungaboqar yetishtiruvchi markazlari – Ukraina va Shimoliy Kavkaz fashistlar tomonidan bosib olindi. Mazkur mintaqalarda urushga qadar butun mamlakatda yetishtiriladigan g‘allaning 38 foizi, texnika ekinlarining deyarli yarmi, qand lavlagining 87 foizi, yirik qoramollarning 45 foizi, cho‘chqaning 60 foizi yetishtirilar edi [4. B. 143].

Mamlakatning janubiy va g‘arbiy rayonlarini boy berish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi texnik ta’minotining ham keskin pasayishiga olib keldi. Urushdan oldin mamlakatdagi barcha kombaynlarning 35 foizi va traktor parkining 28 foizi, shuningdek, transport vositalarining salmoqli qismi shu hududlarda joylashgan edi. Nemis-fashistlar tomonidan bosib olingan hudud mamlakatning butun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish qudratining 30 foiziga ega edi [5. B. 369]. Qishloq xo‘jaligini evakuatsiya qilishdagi qiyinchiliklar tufayli bir qancha texnikalar buzib tashlandi yoki yo‘q qilindi, ma’lum miqdor texnikalar esa Qizil Armiya ixtiyoriga o‘tkazildi. 1941-yil oxiriga kelib, qishloq xo‘jaligi mashina-traktor parki urushdan oldingi darajaga nisbatan 242 ming traktor, 61 ming kombayn va 162 ming avtomobilga kamaydi. Saqlanib qolgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining quvvati urushdan oldingi darajaning deyarli 60 foiziga kamaygan edi [2. B. 415]. Sovet Ittifoqining taqqoslanadigan hududi (nemis-fashistlar tomonidan bosib olingan hududlardan tashqari) bo‘yicha kolxozlarda va MTSda haydov va tortish texnikalari 32 foizga, avtomashinalar soni 89 foizga kamaydi, kolxozlarda ishchi kuchi sezilarli darajada qisqardi [6. B. 7]. Mamlakatning eng muhim qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchi rayonlarining dushman tomonidan egallanishi urushning dastlabki oylaridanoq mamlakat iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligi sohasini og‘ir ahvolga solib, front va front ortini oziq-ovqat va xomashyo

bilan ta’minlashda katta muammolarni keltirib chiqardi. O‘ta og‘ir va noqulay sharoitda mamlakat dehqonlari qishloq xo‘jaligini harbiy izga solish, armiyani va mamlakat aholisini zarur oziq-ovqat va xomashyo bilan ta’minlashdek o‘ta og‘ir vazifani o‘z zimmasiga oldi.

Ma’lumki, Stalin rejimi dehqonlarga majburiy kollektivlashtirish va “quloqlarni sinf sifatida tugatish”, dehqonlarning peshona teri evaziga amalga oshirilgan sanoatlashtirish orqali mislsiz azob-uqubatlarni keltirdi. Ayniqsa, 1930-yillarning boshidagi dahshatli ocharchilik qishloq aholisi uchun musibatli davr bo‘ldi.

Sovet hokimiyatining dehqon xo‘jaliklariga nisbatan o‘z strategik maqsadlarini amalga oshirishdagi umumiy munosabati urush yillarida ham o‘zgarmadi. Dehqonlarga zo‘ravonlik qilish, bosim o‘tkazish, og‘ir majburiyatlar yuklash kabi ma’muriy-buyruqbozlik usullari yanada kuchaytirildi. Davlatdagi butun hokimiyat Stalin rahbarligidagi Davlat Mudofaa Komiteti (GKO) qo‘lida jamlandi. VKP(b) Markaziy Komiteti amalda Davlat Mudofaa Komitetining siyosiy filialiga aylantirildi, Siyosiy byuro boshqaruvi sovet hukumati faoliyatini to‘la o‘z nazorati ostiga oldi.

Stalinning cheklanmagan mutlaq hokimiyati uning shaxsiyatidagi kamchilik va illatlarning butun davlat tizimining kamchilik va illatlariga aylanishiga olib keldi. Stalinning yanglishuvlari, qo‘pol xatolari va ochiq jinoyatlari sovet xalqiga juda qimmatga tushdi va fashistlar ustidan qozonilgan g‘alabaning bahosini ko‘p marta oshirdi. Shafqatsiz urush yillarida Stalin rejimi agrar siyosatining asosiy mazmuni qishloq xo‘jaligiga va umuman dehqonlarga ma’muriy-buyruqbozlik yondashuvidan iborat edi.

Urushning dastlabki kunlaridanoq butun mamlakatni g‘alla va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash mas’uliyati mamlakatning janubiy hududi bo‘lgan O‘rta Osiyo respublikalari, xususan, O‘zbekiston mehnatkashlari zimmasiga yuklandi. O‘zbekistonda urushning birinchi yillaridayoq qishloq xo‘jaligining yangi tarmog‘i – lavlagichilik yo‘lga qo‘yildi, Respublikada ekin maydonlari kengaytirilib, paxta hosildorligini kamaytirmagan holda, g‘alla yetishtirish, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, chorvachilikni rivojlantirishga e’tibor qaratildi.

Iqtisodiyotning agrar sektorini harbiy izga solish juda qiyin va murakkab sharoitda olib borildi. Urushning dastlabki oylaridanoq qishloqning moddiy-texnik bazasi, mehnat resurslari keskin kamaydi. Zero, respublikadagi chaqiruv yoshidagilarning asosiy qismini qishloq aholisi tashkil qilar, 1940-yilda respublika jami aholisining 70 foizini tashkil qilgan. Qishloq aholisi armiyani askar bilan ta’minlashning eng ko‘p sonli manbasi bo‘lib, kolxoz raislari, hisobchilar, agronom, brigadirlar, haydovchi, traktorchi, mexanik, oddiy kolxozchi va sovxoz ishchilarining ko‘pchiligi dastlabki kunlardanoq urushga safarbar qilindi. Bundan tashqari, qishloq aholisining ma’lum bir qismi front yaqinidagi mudofaa inshootlari qurilishiga, ko‘mir qazib olish va sanoatning boshqa tarmoqlaridagi turli ishlarga ham safarbar etildi. Bularning barchasi respublika kolxoz-sovxozlaridagi ishchi kuchining sezilarli darajada kamayishiga sabab bo‘ldi, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida resurslar tanqisligini keltirib chiqardi.

Ishchi kuchi bilan bir qatorda front ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jalik texnikasi – yuk avtomobillari, traktorlar, pritseplar, arava va boshqa vositalar ham olindi. MTSlar, kolxoz va sovxozlar o‘zlarining ixtiyoridagi eng yaxshi texnikalarni urush ehtiyojlari uchun berishga majbur bo‘ldi. Shu bilan birga, kolxoz va sovxozlardagi ko‘pgina otlar ham front ehtiyojlari uchun olindi, vaholanki, ular qishloq xo‘jaligida asosiy ishlarni bajaruvchi kuch (yer haydash, yuk tortish va hokazo) hisoblanar edi.

1941-yilda Namangan oblastining o‘zida Qizil Armiya ehtiyojlari uchun 94 ta GAZ AA-47, ZIS 5-47 avtomashinalari va 1420 ta ot yuborilgan [7. B. 6]. Urush yillarida qishloq xo‘jalik texnikalari uchun ehtiyot qismlar, yonilg‘i-moylash materiallari ta’minoti ham qisqardi. Bunday zarur vositalarning taqchilligi, malakali traktorchi va mexaniklarning urushga yuborilishi natijasida mavjud texnika vositalarining samaradorligi ham sezilarli darajada pasaydi. Ayni paytda, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash darajasi ham yildan yilga tushib bordi. Tobora ortib borayotgan qishloq xo‘jaligi ishlarini faqat belgilangan mehnat intizomiga qattiq rioya etish, shu bilan birga ot va qo‘l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishni ko‘paytirish evazigagina bajarish mumkin edi.

Shu tariqa urush respublika qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchi kuchlarining ahvoliga halokatli ta’sir ko‘rsatdi. Urushning birinchi yilidanoq O‘zbekistonda qishloq mehnatkashlari o‘ta og‘ir sharoitda, moddiy, mehnat va oziq-ovqat resurslarining keskin tanqisligi sharoitida mehnat qilishga majbur bo‘ldilar.

Urush arafasida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi kuchli moddiy-texnik bazaga ega edi. Respublikadagi mavjud 189 ta MTSlarda turli rusumdagi 19 ming donadan ortiq traktorlar jamlangan, ular qishloq xo‘jaligi uchun xizmat ko‘rsatar edi [8. B. 2]. Urush tufayli qishloq xo‘jaligini yangi texnika bilan ta’minlashda katta qiyinchiliklar yuzaga keldi, o‘z ixtiyoridagi traktorlar, avtomobillar va boshqa qishloq xo‘jaligi texnikalari soni keskin kamaydi. Agar 1941-yil boshida respublika qishloq xo‘jaligida 23 ming dona traktor, 7,3 ming dona avtomobil mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1945-yil oxiriga kelib traktorlar 19 mingtaga, avtomo-

billar esa 1,6 mingtaga qisqargan, yer haydashda ishlatiladigan pluglar 1941–1945-yillarda 732 mingtadan 47 mingtaga, kultivatorlar 55 mingtadan 51 mingtaga, seyalkalar 719 donadan 247 taga kamaygan [9. B. 36].

O‘zbekiston MTSlari ish faoliyatini harbiy maqsadlar uchun qayta yo‘naltirish ishlari respublika yer-suv ishlari Xalq Komissarligi tomonidan amalga oshirildi. Komissarlik traktorlar va boshqa qishloq xo‘jalik texnikalarini asrab-avaylab ishlatishga boshqosh bo‘ldi. Ayni paytda, urush ketayotgan hududlardan ko‘chirib keltirilgan traktor va boshqa texnika vositalarini ta’mirlash, ularni mahalliy qishloq xo‘jalik ekinlariga ishlov berishga moslashtirish kabi ishlarni ham muvofiqlashtirib turdi [10. B. 41].

Mashina-traktor stansiyalari kolxoz va sovxoz ekin maydonlarini kengaytirish, yangi yerlarni o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Masalan, respublika kolxozlarida ekin maydonlari 1941-yilning o‘zida 1940-yildagiga nisbatan 117,8 ming gektarga ko‘payib, ekin maydonlari, asosan, yangi yerlarni o‘zlashtirish va suv chiqarish hisobiga kengaytirildi.

1941-yil 6-iyuldagi ma’lumotga ko‘ra, Andijon oblastida shu yili 126 ming 593 gektar yerga paxta ekilgan. Rayonlar bo‘yicha paxta maydonlari quyidagicha edi: Andijon rayonida – 10300 gektar, Oltinko‘l rayonida – 10170 gektar, Lenin (Asaka) rayonida – 12900 gektar, Izboskan rayonida – 11700 gektar, Stalin (Shahrixon) rayonida – 14120 gektar, Oyim rayonida – 5420 gektar, Voroshilov (Qo‘rg‘ontepa) rayonida – 10600 gektar, Xo‘jaobod rayonida – 11000 gektar, Paxtaobod rayonida – 7740 gektar, Marhamat rayonida – 8600 gektar, Baliqchi rayonida – 13743 gektar [11. B. 49].

Urushning ilk davridagi og‘ir qiyinchiliklariga qaramay, Andijon oblasti mehnatkashlari 1941-yilda davlatga 297 ming tonna paxta topshirdi, bu respublika oblastlari ichida eng yuqori ko‘rsatkich edi. 1941-yilda paxta hosildorligi respublika bo‘yicha gektaridan o‘rtacha 17,4 sentnerni tashkil etgani holda, Andijon oblastida hosildorlik juda yuqori bo‘lib, gektaridan o‘rtacha 23,4 sentnerni tashkil qildi. Oblastning 629 ta kolxozidan 147 tasi paxta topshirish davlat rejasini 100–110 foiz, 118 tasi 110–120 foiz, 222 tasi 120–150 foiz, 28 tasi esa 150 foizdan orttirib bajardi [12. B. 12].

Urush boshlanishi va xalq xo‘jaligining to‘liq harbiy maqsadlarga yo‘naltirilishi munosabati bilan, kelgusi 1942-yil uchun qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish va ularning hosildorligi masalasi ham qayta ko‘rib chiqildi. Bunga ko‘ra, front ehtiyojlari uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan paxta, g‘alla va boshqa oziq-ovqat ekinlari maydonlarini kengaytirish va hosildorligini oshirishga alohida e’tibor berilib, qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish bo‘yicha qat’iy majburiyatlar belgilandi.

O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining Andijon oblasti bo‘yicha Tashkiliy komiteti va O‘zKP(b) MKning Tashkiliy byurosining 1942-yil 21-apreldagi yig‘ilishida Andijon oblasti kolxozlari bo‘yicha 1942-yilda sug‘oriladigan ekin maydonlarini 198350 gektarga yetkazish vazifasi qo‘yilgan. Jumladan, sug‘oriladigan yerlarda 30353 gektar yerda g‘alla, 134100 gektar yerda texnika ekinlari, 5500 gektar yerda sabzavot-poliz ekinlari va kartoshka, 28310 gektar yerda chorva ozuqasi yetishtirish bo‘yicha majburiyat belgilangan. Jami sug‘oriladigan ekin maydonlari 198263 gektarni tashkil etishi rejalashtirildi. Bundan tashqari, 2697 gektar yerda takroriy ekinlar ekish ko‘zda tutilgan [13. B. 24].

1-jadval

Andijon oblastida 1942-yilda sug‘oriladigan yerlarda yetishtiriladigan g‘alla va donli ekinlar hosildorligi rejasi (1 gektar yerda sentnerda) [16. B. 16]

№	Rayonlar	bug‘doy	arpa	sholi	jo‘xori	makka-jo‘xori	tariq	mosh, loviya	kunjut
1	Andijon	16,0	16,5	30,5	20,0	19,0	16,0	15,0	3,0
2	Oltinko‘l	16,0	16,5	31,0	23,0	23,0	19,0	15,0	3,0
3	Lenin	17,0	16,5	30,5	20,0	19,0	17,0	15,0	3,0
4	Izboskan	17,0	16,5	32,0	20,0	19,0	17,0	15,0	3,0
5	Stalin	15,0	15,0	30,5	20,0	18,0	15,0	15,0	3,0
6	Oyim	15,5	15,5	31,5	23,0	23,0	19,0	15,0	3,0
7	Jalolquduq	17,0	16,5	31,5	22,0	23,0	19,0	15,0	3,0
8	Voroshilov	16,0	16,0	31,5	23,0	23,0	20,0	15,0	3,0
9	Xo‘jaobod	16,0	16,0	31,5	22,0	23,0	20,0	15,0	3,0

10	Пахтаобод	16,0	16,5	30,5	22,0	22,0	16,0	15,0	3,0
11	Marhamat	17,0	16,2	30,5	22,0	21,0	17,0	15,0	3,0
12	Baliqchi	16,0	15,0	30,5	20,0	18,0	16,0	15,0	3,0
	Oblast bo‘yicha o‘rtacha	**16,0**	**16,0**	**31,0**	**21,0**	**20,0**	**17,0**	**15,0**	**3,0**

1942-yilning 28-mayida Andijon oblasti rayonlarida bug‘doy va boshqa boshoqli ekinlarni o‘rib olishga tayyorgarlik ishlari taftish qilingan. Tekshirish davomida Paxtaobod rayoni Madaniyat qishloq sovetidagi Karl Marks nomli kolxozda 400 gektar maydonga g‘alla ekilgani, lekin uni yig‘ib olish uchun zarur chora-tadbirlar ko‘rilmagani aniqlangan. Ya’ni, mavjud 4 ta g‘alla yanchish uskunasi va 2 ta bug‘doy o‘radigan uskuna tayyor holga keltirilmagan, 40 ta chalg‘i soplanmagan holda bo‘lgan. Kolxozchilar chalg‘i bilan bug‘doy o‘rishga o‘rgatilmagan, g‘allani faqat o‘roqlar yordamida yig‘ishtirib olish mo‘ljallangan. Bu kabi kamchiliklar rayondagi boshqa kolxozlarda ham aniqlangan, ularni bartaraf etish yuzasidan Paxtaobod rayon partiya komitetiga tezkor xat chiqarilgan [17. B. 177–178].

1942-yilda oblastdagi kolxoz va sovxozdagi qishloq xo‘jalik ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish uchun qisqa muddatli kurslarda 17470 nafar ishchi va mexanizator kadrlar tayyorlangan. Ulardan 16950 nafari qurt boquvchi va dala ishchilari, 400 nafari traktorchilar, 90 nafari hisobchilar, 30 nafari kombaynchilar edi [18. B. 92].

1942-yilda oblastda paxtadan belgilangan majburiyat bo‘yicha hosil olinmadi. 1941-yilda oblastda 126 ming 213 gektar yerga paxta ekilib, 297000 tonna (gektaridan 23,4 sentner) hosil olingan bo‘lsa, 1942-yilda 133 ming 291 gektar yerga paxta ekilgan va yalpi hosil 149552 tonnani yoki gektaridan o‘rtacha 11,2 sentnerni tashkil qilgan. 1942-yilda paxta bo‘yicha eng yuqori hosildorlik Paxtaobod rayonida kuzatilgan, bu rayonda har gektar yerdan o‘rtacha 17,6 sentnerdan hosil olingan. Eng past hosil Baliqchi rayonidan olingan, bu yerda har gektar yerdan o‘rtacha 7,3 sentnerdan paxta yetishtirilgan. Vaholanki, o‘tgan 1941 - yilda Baliqchi rayonida har gektaridan o‘rtacha 16,3 sentnerdan hosil olingan edi [19. B. 42]. Paxta bo‘yicha davlat majburiyatlari bajarilmaganining asosiy sababi 1942-yilda paxtachilikda band bo‘lgan ko‘pgina erkaklarning urushga safarbar qilinishi va paxtaga zarur ishlov va parvarish qilinmaganligi edi. Umuman, 1942-yilda paxta hosildorligi Andijon oblastidagina emas, balki respublikaning barcha oblastlarida ham o‘tgan yilga nisbatan 10–15 sentnerga kamayib ketgan.

Urush sharoitida qishloq mehnatkashlarining moddiy ahvoli va maishiy turmush darajasida muayyan qiyinchiliklar yuzaga keldi. Bular, avvalo, barcha e’tiborning urush ehtiyojlariga qaratilganligi, butun mamlakatda “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun” shiorining targ‘ib etilishi bilan bog‘liq edi. Bunga ko‘ra, qishloq aholisi – kolxoz va sovxoz ishchilari, yakka dehqon xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilayotgan har qanday mahsulot front ehtiyojlariga olinishi majburiy edi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari bo‘yicha majburiyatlar kolxoz va sovxozlar uchungina emas, balki qishloq aholisining tomorqalarida yetishtiriladigan mahsulotlar bo‘yicha ham joriy etildi. Buning ustiga qishloq aholisi urush davrida yangidan joriy etilgan bir qator soliq va majburiyatlarni (harbiy soliq, zayomga yozilish, ixtiyoriy-majburiy ko‘rinishdagi turli xayriya tadbirlari) ham bajarishlari lozim edi.

Urush yillarida qishloq aholisining og‘ir moddiy ahvoliga doir arxiv ma’lumotlar yo‘q bo‘lsa-da, kolxozchilarga mehnati evaziga to‘lanishi lozim bo‘lgan haq bo‘yicha ma’lumotlar mavjud. O‘zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining 1942-yil 17-fevraldagi “Kolxozchilarga pul va natural hisobida avans berish tartibi to‘g‘risida”gi ko‘rsatmasiga ko‘ra, kolxozchilarga haftada bir marotaba ularning o‘rtacha mehnat kunini e’tiborga olgan holda avans ish haqi berilishi ko‘rsatilgan. Bunda kolxozlarning paxta uchun davlatdan olgan avans mablag‘larining 85 foizi kolxozchilar o‘rtasida mehnat kuni bo‘yicha taqsimlanishi, qolgan 15 foizi esa kolxozlarning boshqa xarajatlari uchun sarflanishi ko‘rsatilgan. Paxtadan boshqa (qand lavlagi, pilla va boshqa) ekinlar hisobiga pul hisobidan avans mablag‘lariga ega bo‘lgan kolxozlar bu pul mablag‘larining bir qismini kolxozchilarga avans tariqasida taqsimlashlari ham mumkin edi. Bu holatda kolxozlar qand lavlagi yetishtirishda mehnat qilgan kolxozchilarning har bir mehnat kuni uchun kamida 50 tiyindan avans berishilishi ko‘zda tutilgan [20. B. 112]. Umuman, kolxozchilarga mehnat kuni uchun avans berishda avans miqdori kolxozchining bir kunlik ish haqining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim edi.

Urush sharoitida respublikadagi salmoqli kolxozlarda ishchilarga mehnat kuni evaziga oziq-ovqat mahsulotlari ko‘rinishidagi natural avanslar taqsimlash amalga oshirilmagan yoki uning tartiblari buzilgan. Ya’ni, kolxozchilarga berilishi lozim bo‘lgan g‘alla va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari dalalarda ular

uchun tashkil qilingan umumiy ovqatlanish maqsadlarida ishlatilgan, kolxozchining oilasi uchun natural avans berilmagan, berilsa ham uning miqdori juda oz bo‘lgan. Bu holatda kolxozchining oilasidagi keksa kishilar va yosh bolalarning oziq-ovqat ta’minotida jiddiy muammolar yuzaga kelgan [20. B. 125].

Boshqa bir holatlarda esa, kolxozlarning natura shaklidagi (asosan g‘alla) avanslari kolxozchilarning mehnat kuniga qarab emas, alohida kolxozchilarning muhtojligiga qarab taqsimlangan. Natijada kolxozchilarning kolxoz ishidagi moddiy manfaatdorligi pasaygan.

Faqat paxta, qand lavlagi va pilla yetishtirishda mehnat qilayotgan ishchilarga kolxozlar tomonidan g‘alla, moy, qand kabi oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat (gazlama) mollari avans tariqasida taqsimlanishi zarur edi [20. B. 125]. Namuna tariqasida ko‘rsatilgan me’yorlarga ko‘ra, kolxozchilar bir kunlik mehnati evaziga 310 gramm g‘alla, 10 gramm yog‘, 2,5 gramm quruq choy, 46 gramm qandni avans sifatida olishlari lozim edi [20. B. 116].

Kolxozlar va alohida dehqon xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan pillaning har bir kilogrammi uchun davlat tomonidan muayyan narx belgilangan yoki pilla evaziga natural to‘lovlar berilishi ko‘zda tutilgan. SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1943-yil 2-dekabrdagi №1343-sonli “Kolxozlardagi ipakchilikni rivojlantirish va pilla hosildorligini oshirish choralari to‘g‘risida” qarorida [21. B. 182] O‘zbekiston SSR kolxoz jamoalari tomonidan davlatga topshirilgan pillaning har kilogrammi uchun 18 so‘m 75 tiyin pul yoki shu summadagi ip-gazlama, shuningdek, 1 so‘m 25 tiyinlik quruq choy (25 gramm) berilishi, alohida kolxozchilar xo‘jaligida yetishtirilgan har bir kilogramm pilla uchun esa 9 so‘m 50 tiyin pul (yoki gazlama), shuningdek, 50 tiyinlik quruq choy (10 gramm) berilishi ko‘rsatilgan [20. B. 197].

1942-yilda Andijon oblastida qishloq xo‘jalik mahsulotlarining o‘rtacha bozor narxi quyidagicha edi: mol go‘shti – 60 so‘m, qo‘y go‘shti – 70 so‘m, bir kilogramm guruch – 90 so‘m, bir kilogramm bug‘doy uni – 50 so‘m, bir kilogramm arpa uni – 30 so‘m, bir kilogramm bug‘doy – 45 so‘m, bir kilogramm arpa – 25 so‘m, bir kilogramm tuyilgan jo‘xori – 45 so‘m, bir kilogramm makka doni – 70 so‘m, bir kilogramm mosh – 65 so‘m, bir kilogramm kartoshka – 40 so‘m, bir kilogramm karam – 30 so‘m, bir kilogramm sabzi – 30 so‘m, bir kilogramm o‘rik – 10 so‘m, bir litr sut – 8 so‘m, bir bog‘ pichan – 5 so‘m [22. B. 289].

Yuqoridagi ma’lumotlarni o‘zaro taqqoslash orqali kolxozchilar og‘ir mehnati evaziga oladigan ish haqi miqdori bilan eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarining bozor narxlari o‘rtasidagi tafovut ancha yuqori bo‘lganiga guvoh bo‘lish mumkin.

Umuman, urushning dastlabki yillarida Andijon qishloq xo‘jaligi qishloq mehnatkashlarining mashaqqatli mehnati evaziga harbiy izga solindi va urush ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar yetkazib berishga ixtisoslashdi. Bu yillardagi muhim xususiyat – qishloq xo‘jalik ekinlari turlarining ko‘payishi bo‘ldi. Ya’ni, viloyat qishloq xo‘jaligida paxtadan tashqari g‘alla va don ekinlari, yog‘ olinadigan kunjut, zig‘ir kabi ekinlar, shuningdek, qand lavlagi yetishtirish ham keng yo‘lga qo‘yildi. Ayni paytda sabzavotchilik, bog‘dorchilik, poliz ekinlari yetishtirishga ham e’tibor kuchaytirildi. Qishloqdagi asosiy ishchi kuchi bo‘lgan erkaklarning urushga safarbar etilishi natijasida qishloq xo‘jaligidagi asosiy yumushlar ayollar, keksalar va bolalar zimmasiga yuklandi. Ana shunday og‘ir, murakkab sharoitlarda qishloq mehnatkashlarining fidokorona mehnati bilan turli qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha katta natijalarga erishilishi fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Adabiyotlar:

1. Народное хозяйство СССР за 70 лет. Юбилейный статистический ежегодник. – Москва: Финансы и статистика, 1987. – 765 с.

2. Великая Отечественная война. 1941–1945. Военно-исторические очерки. В 4-х книгах. Кн. 1. Суровые испытания / Гл. ред. Н.М. Раманичев. – Москва: Наука, 1998. – 541 с.

3. История Великой Отечественной войны Советского Союза. 1941–1945 гг. В 6 томах. Том 2. – Москва: Воениздат, 1961. – 680 с.

4. История советского крестьянства. Том 3. Крестьянство накануне и в годы Великой Отечественной войны. 1938–1945. / Отв. ред. М.А.Вылцан. – Москва: Наука, 1987. – 447 с.

5. История социалистической экономики СССР. / Отв. ред. И.А. Гладков. Том 5. Советская экономика накануне в период Великой Отечественной войны. 1938–1945 гг. – Москва: Наука, 1978. – 562 с.

6. *Болгов А.В.* Сила и жизненность колхозного строя. – Ижевск: Удмуртгосиздат, 1946. – 24 с.

7. Наманган вилоят давлат архиви, 275-фонд, 1-рўйхат, 24-иш.

8. Ўзбекистон Миллий архиви (Ўз МА), Р-1619-фонд, 1-рўйхат, 602-иш.

9. Ўз МА, Р-1619-фонд, 1-рўйхат, 662-иш.

10. Ўз МА, Р-90-фонд, 8-рўйхат, 5293-иш.
11. Андижон вилоят давлат архиви (АВДА), 619-фонд, 1-рўйхат, 1-иш.
12. Ўз МА, Р-1619-фонд, 10-рўйхат, 592-иш.
13. АВДА, 608-фонд, 1-рўйхат, 54-иш.
14. АВДА, 608-фонд, 1-рўйхат, 36-иш.
15. АВДА, 619-фонд, 1-рўйхат, 6-иш.
16. АВДА, 608-фонд, 1-рўйхат, 56-иш.
17. АВДА хиви, 608-фонд, 1-рўйхат, 32-иш.
18. АВДА, 619-фонд, 1-рўйхат, 7-иш.
19. АВДА, 619-фонд, 1-рўйхат, 8-иш.
20. АВДА, 619-фонд, 1-рўйхат, 2-иш.
21. *Мотревич В.П.* Постановления и распоряжения ГКО и СНК СССР о сельском хозяйстве в годы Великой Отечественной войны // Проблемы истории общества, государства и права. Сборник научных трудов. / Глав. ред. А.С. Смыкалин. Вып. 17. – Екатеринбург: Уральский государственный юридический университет имени В.Ф. Яковлева, 2022. – С. 150–220.
22. АВДА, 127-фонд, 1-рўйхат, 100-иш.

AGRICULTURE OF THE ANDIJAN REGION IN THE FIRST YEARS OF THE SECOND WORLD WAR (1941-1942)

M.G. Abdullaev[1], R. Abdurasulov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 1(77). 21-27.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str., University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: World War II, military mobilization, Andijan region, cotton growing, agricultural production, grain crops, government obligations, collective farm, state farm, vegetable gardening, advance in kind.

In the first months of the German-Nazi invasion of the Soviet country, which began in 1941, the main grain, sugar beet and sunflower growing centers of the country - Ukraine and the North Caucasus - fell under the Nazi invasion. The occupation of the country's most important agricultural producing regions by the enemy caused great problems in the supply of food and raw materials to the front and behind the front. In such difficult conditions, the rural workers of Uzbekistan undertook the task of making agriculture military, providing the army and the country's population with the necessary food and raw materials.

The military pursuit of the agrarian sector of the economy was carried out in very difficult and complicated conditions. From the first months of the war, the material and technical base of the village and human resources were sharply reduced. Along with people, agricultural machinery for the needs of the front - trucks, tractors, trailers, carts and other tools - were taken. The war had a negative impact on the state of the agricultural production forces of the republic. From the first year of the war, rural workers in Uzbekistan were forced to work in extremely difficult conditions, in conditions of severe shortage of material, labor and food resources.

In 1941, workers of Andijan region delivered 297,000 tons of cotton to the state, which was the highest figure among the republic's regions. In 1941, the average yield of cotton was 17.4 centners per hectare in the republic, but the yield in Andijan region was very high, and it was 23.4 centners per hectare on average. Out of 629 collective farms of the region, 147 fulfilled the state cotton delivery plan by 100-110 percent, 118 by 110-120 percent, 222 by 120-150 percent, and 28 by 150 percent.

In 1942, 92,300 hectares of collective farms and state farms in the regions of Andijan region were planned to grow grain crops, and instructions were given to grow grain crops on 1,937 hectares in auxiliary farms of organizations and institutions in the regions. In 1942, cotton was not harvested in the region according to the established obligation. In 1941,

cotton was planted on 126,213 hectares of land in the region, and 297,000 tons (23.4 centners per hectare) were harvested.

During the war, in many collective farms in the republic, distribution of natural advances in the form of food products to collective farmers in exchange for a day's work was not carried out or its procedures were violated. That is, grain and other food products, which should be given to collective farmers, were used in the fields for the purposes of general meals organized for collective farmers, no advance in kind was given for the collective farmer's family, even if it was given, its amount was very small. In this case, there were serious problems with food supply for the elderly and young children in the collective farmer's family.

References:

1. (1987) Narodnoe hozyajstvo SSSR za 70 let. [The national economy of the USSR over 70 years]. In: Yubilejnyj statisticheskij ezhegodnik [Anniversary statistical yearbook]. Moscow: Finansy i statistika.

2. Ramanichev, N.M. (ed.) (1998) Velikaya Otechestvennaya vojna. 1941–1945. Voenno-istoricheskie ocherki [The Great Patriotic War. 1941-1945. Military historical essays]. Surovye ispytaniya [Severe testing]. In 4 books. Book 1. Moscow: Nauka.

3. (1961) Istoriya Velikoj Otechestvennoj vojny Sovetskogo Soyuza. 1941–1945 gg. [History of the Great Patriotic War of the Soviet Union. 1941–1945]. In 6 volumes. Vol. 2. Moscow: Voenizdat.

4. Vylcan, M.A. (ed.) (1984) Istoriya sovetskogo krest'yanstva [History of the Soviet peasantry]. In: Tom 3. Krest'yanstvo nakanune i v gody Velikoj Otechestvennoj vojny. 1938-1945. [Peasantry on the eve and during the Great Patriotic War. 1938-1945]. Vol.3. Moscow: Nauka.

5. Gladkov, I.A. (ed.) (1078) Istoriya socialisticheskoj ekonomiki [SSSR. History of the socialist economy of the USSR]. In: Sovetskaya ekonomika nakanune v period Velikoj Otechestvennoj vojny. 1938–1945 gg. [Soviet economy on the eve of the Great Patriotic War. 1938-1945]. Vol.5. Moscow: Nauka.

6. Bolgov, A.V. (1946) Sila i zhiznennost' kolhoznogo stroya [The strength and vitality of the collective farm system]. Izhevsk: Udmurtgosizdat.

7. Namangan viloyat davlat arxivi [State archive of Namangan region]. Fund 275, List 1, Case 24.

8. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA) [National archive of Uzbekistan (NA of Uz]. Fund R-1619, List 1, Case 602.

9. NA of Uz, Fund R-1619, List 1, Case 662.

10. NA of Uz, Fund R-90, List 8, Case 5293.

11. Andijon viloyat davlat arxivi [State archive of Andijan region (ARSA)]. Fund 619, List 1, Case 1.

12. NA of Uz, fund R-1619, List 10, Case 592.

13. ARSA, Fund 608, List 1, Case 54.

14. ARSA, Fund 608, List 1, Case 36.

15. ARSA, Fund 619, List 1, Case 6.

16. ARSA, Fund 608, List 1, Case 56.

17. ARSA, Fund 608, List 1, Case 32.

18. ARSA, Fund 619, List 1, Case 7.

19. ARSA, Fund 619, List 1, Case 8.

20 ARSA, Fund 619, List 1, Case 2.

21. Motrevich, V.P. (2022) Postanovleniya i rasporyazheniya GKO i SNK SSSR o sel'skom hozyajstve v gody Velikoj Otechestvennoj vojny [Resolutions and orders of the State Defense Committee and the Council of People's Commissars of the USSR on agriculture during the Great Patriotic War]. In: Problemy istorii obshchestva, gosudarstva i prava [Problems of the history of society, state and law]. Collection of scientific papers. Vol. 17. Ekaterinburg: Ural'skij gosudarstvennyj yuridicheskij universitet imeni V.F.YAkovleva. Pp. 150-220.

22. ARSA, Fund 127, List 1, Case 100.

Mualliflar haqida ma'lumot:

ABDULLAYEV Muzrobjon G'ulomovich – tarix fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi professori. E-mail: muzrobjon@list.ru

ABDURASULOV Rasulbek Nurmaxammatovich – Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi mutaxassisligi tayanch doktoranti. E-mail: r_abdurasulov@mail.ru